

**Buxoro xonligi siyosiy jarayonlarida davlat boshqaruvi amaldorlarining
o‘rni – otaliq misolida.**

Sarboon universiteti katta o‘qituvchisi
Nurmuxammadov Sharofitdin Shermamaxmat o‘g‘li
+99 888 200 19 19

Hozirgi tezlik bilan kechayotgan davr ko‘plab davlatlarda demokratik islohotlarni ham jadallashtirishi bilan bir qatorda boshqaruv tizimini takomillashtirishni, unda sifat jihatidan o‘zgarishlarni yuzaga keltirishni talab etmoqda. Ayniqsa Osiyo qit‘asidagi bir qator davlatlarda mazkur muammo ko‘zga tashlanmoqda. Tarixdan ma‘lumki, davlatning boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘naltirish ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikning asosiy omili hisoblangan. Shu jihatdan ham O‘zbek davlatchiligi tarixining turli bosqichlaridagi sulolalarning markaziy boshqaruv siyosatiga jiddiy e‘tibor qaratish o‘rinlidir.

O‘zbek davlatchiligi tarixining ajralmas bir qismi bo‘lgan Buxoro xonligi tarixi yoritilgan manbalarda valiahdlarni tarbiyalash va tanlash qonun-qoidalari, yer-mulklarni taqsimlash, otaliq-tarbiyachilar faoliyati haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Ashtarxoniylar davri manbalarida otaliqlar xon huzuridagi Kengashda hukmdorning chap tomonida naqibdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turgan¹. Ushbu mansabning shahzodalar tarbiyasi bilan shug‘ullanishdan tashqari bir qancha asosiy vazifalari ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, Farhodbiyni otaliq mansabiga tayinlash haqidagi manshurda yozilishicha, ushbu mansabdagi shaxs Buxoro viloyatidan oqib o‘tuvchi daryo suvlarini oldindan mavjud bo‘lib kelayotgan dastur asosida tenglik va adolat bilan taqsimlashni nazorat qilishi kerakligi qayd etiladi².

Mirzo Badi devonning yanada aniqroq qilib yozishicha, otaliq Buxoroyi sharif suvining idorasi, Samarqanddan Qorako‘lgacha bo‘lgan suv taqsimotini nazorat qilgan. Buxoro mirobligi va dorug‘aligi ham uning vazifasiga kirgan³. Shuningdek, otaliq mansabidagi shaxsning harbiy harakatlarda ishtiroki haqida ko‘plab ma‘lumotlarga duch kelish mumkin. Ushbu mansab juda ko‘p o‘rinda butun qo‘shinga boshchilik qilgan. Jumladan, Farhodbiy otaliqqa qo‘shin qo‘mondoni “Ilg‘orboshiyi askar yoki sardori sipoh” unvoni berilganligi haqidagi nishon saqlanib qolgan⁴. Abdurahmon Toile Abulfayzxon qo‘shinning markaziy qismini Hakimbiy otaliq boshqarganligini qayd etadi. Ta‘kidlash kerakki, otaliq mansabining bunday keng bir necha vazifa va vakolotlarga ega bo‘lishi ba‘zan mansab egasining suiiste’molliklarga yo‘l qo‘yishiga

¹ Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. – Б. 207 – 297.

² Sangirov J. O‘zbek davlatchiligi tarixi: ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimi. PhD dissertatsiyasi. – T., 2024. – B. 73.

³ Семёнов. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. – С. 144 – 145.

⁴ Sangirov J. O‘zbek davlatchiligi tarixi: ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimi. PhD dissertatsiyasi. – T., 2024. – B. 73.

ham olib kelgan. Xususan, bunday holni Rahimbiy yuz otaliqning Ubaydullaxonni, dastlab Farhodbiy otaliq, keyin Hakimbiy otaliqlarning Abulfayzxonni o‘z ta’sir doirasida ushlab turishga intilishlarida bu hol yorqin ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda, manbalarda bir vaqtning o‘zida poytaxtda bir necha otaliqlar tilga olinish holatiga izoh beriladigan bo‘lsa, Anton Alekseyev bunga sabab qilib har bir shahzodaga bittadan otaliq mansabidagi shaxsning belgilanish jarayonini ko‘rsatadi.

1711-yilda Ubaydullaxon bir qancha amirlarni Odil otaliq hokimligidagi Balx viloyatiga, viloyat boshqaruv hujjatlarini taftish qilish uchun yuboradi⁵. Shuningdek, Subhonqulixon davrida Balx viloyati aholisi hukmdorga Muhammadjon otaliqni faoliyatidan norozi bo‘lib, viloyat hokimligidan olishini so‘rab murojaat qilishadi. Subhonqulixon bu murojaatdan so‘ng Balxga taftishchilarni yuboradi. Boshqaruvida kamchiliklar aniqlangach, Muhammadjon otaliq viloyat hokimligidan bo‘shatiladi. Uning o‘rniga Javimbiy otaliq hokim etib tayinlanadi.

Bu o‘rinda viloyat hokimlarining otaliq, devonbegi, parvonachi deb nomlanishi masalasi ham alohida izoh talab qiladi. Qayd etib o‘tish lozimki, ushbu mansabdorlar hududiy hokimiyatda mazkur mansablarni egallagunlariga qadar markaziy, yoki hududiy boshqaruv tizimida faol ishtirok etganlar. Ular o‘z amallari doirasida davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim rol o‘ynaganlar va muayyan obro‘-e’tibor qozonganlar. Ularning ayrimlariga ba’zi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko‘ra viloyatlar boshqaruvi ishonib topshirilgan. Ko‘p hollarda ular biror viloyatga hokim etib tayinlanganlaridan so‘ng ham mamlakat markaziy boshqaruv tizimida ilgari egallab turgan mansabining nomi bilan ham atalgan. Tarixiy manbalarda bu holatni tasdiqlovchi ma’lumotlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “Tarixi Muqumxoniy” asarida yozilishicha, Mahmudbiy otaliq Badaxshonga yo‘lga tushishidan oldin Maymanadan Yormuhammadbiy mingni chaqirtiradi. Uni otaliq mansabiga, Nodirbiy turkmanni devon kalon lavozimiga tayinlaydi va ularga Balx viloyati boshqaruvini topshiradi. Biroq oradan hech qancha vaqt o‘tmasdan, Yormuhammadbiy Maymana viloyati hokimligiga yana qaytariladi. Endilikda u manbalarda Maymanani boshqaruvchi Yormuhammad otaliq deb nomlana boshlanadi.

Otaliqning harbiy yurishlardagi o‘rni ham katta bo‘lgan. Ular shahzodalar tarbiyachisi bo‘lishi bilan bir qatorda, yurishlar paytida qo‘shinning ma’lum qismiga qo‘mondonlik ham qilgan. Harbiy sarkardalarning yuqori pog‘onalar, jumladan, otaliqlikka ko‘tarilishi ularning janglardagi alohida strategik muvaffaqiyatlari, shaxsiy harbiy jasoratlariga qarab ham bosqichma-bosqich amalga oshgan. Masalan, Abdullohxon qo‘shinida uzoq yillar xizmat qilgan Iqim (Iyqim) otaliq dastlab miroxur, keyinchalik esa tavochi⁶, Balx yaqinidagi janglardan birida (1573-yil iyul) dushman

⁵ Tarixi Abulfayzxon. – B. 8b.

⁶ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. – Б. – Б. 346.

lashkaridan katta guruhini asir olib, xon huzuriga olib kelganligi uchun chuhra og‘osi⁷, keyin yasovul, 1579-yildan boshlab otaliq mansabiga ko‘tarilgan⁸.

Shuningdek, otaliq mansabidagi amaldorlar mamlakatning yirik obodonchilik ishlariga ham rahnamolik qilgan. Masalan, Abdullohxon 1582-yilda Zarafshon vodiysining shimolida joylashgan Nurota tog‘ tizmasidan oqib tushadigan Oqchob soyining darasi ichiga “Abdullaxon bandi” suv omborini qurishni otaliq unvonidagi shaxsga topshirgan. “Abdullanoma” asarida aytilishicha, Abdullohxon farmoni taxminan shunday bo‘lgan: “Ahmadali otaliq nayman o‘sha daraga Somon yo‘li shaklida bir to‘g‘on qursin, toki dehqonlar o‘sha joyda to‘plangan suvni bo‘lishib ekinlarni sug‘orsinlar”⁹.

Shu o‘rinda xulosa qilib aytish mumkinki, Otaliq instituti Markaziy Osiyo xonliklarida, xususan, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar davrida muhim rol o‘ynagan. Uning ildizlari Saljuqiylar davlatidagi “otabek” (Safaviylarda “lala” yoki “lalaboshi”) vazifasiga borib taqaladi. Temuriy va keyingi sulolalarda “atka” yoki “bek atka” deb ham qo‘llanilgan. Bu nomlanishlar Otaliqning "ota o‘rniga ota" ma‘nosini anglatuvchi asosiy vazifasi – shahzodalarni tarbiyalash va ular balog‘atga yetguniga qadar ularga ajratilgan hududni boshqarishdan iborat bo‘lganini ta‘kidlaydi.

Otaliq lavozimi nufuzi shahzodalarning va ularning onalari kuch-qudrati oshib borishi bilan, ularning ham mavqeyi kuchayib borgan yoki aksincha. Bir hukmdor har bir farzandiga otaliq tayinlagan bo‘lib, har bir shahzodaning manfaatidan (taxtni egallash manfaati) kelib chiqib, otaliqlar siyosiy hokimiyat uchun bir-birlari bilan raqobatlasha boshlaganlar.

Otaliqning vazifalari faqat tarbiya bilan cheklanib qolmagan. Ular, bir tomondan, maslahatchi sifatida, ikkinchi tomondan esa, vorislik asosida shahzodalarga tegishli hududlarda nazorat olib boruvchi amaldor vazifasini bajargan. Bu mansab, Abulxayrxon avlodlarida sulolaning yosh vakillarini nazorat qilish vositasi bo‘lgan bo‘lsa, Makchyesniyning fikricha, amirlar uni o‘zbek qabilaviy tashkiloti manfaatlari (fikir va rejalarini xonadonga yetkazish) yo‘lida ham ishlatishgan. Bu, Otaliq lavozimining markaziy hukumatning nazorat funksiyasi va mahalliy (qabila/amir) elitaning ta‘sir o‘tkazish vositasini uyg‘unlashtirganligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Otaliq mansabining nufuzi va vakolat doirasi ancha kengayib ketgan. Bu shaxs markaziy Kengashda yuqori o‘rinni egallashdan tashqari, muhim ma‘muriy-iqtisodiy va harbiy funksiyalarni ham bajargan. Misol uchun, Mirzo Badi Devon ma‘lumotiga ko‘ra, Otaliq Buxoro va Samarqanddan Qorako‘lgacha bo‘lgan suv taqsimotini nazorat qilish (miroblik va dorug‘alik) vazifasiga ega bo‘lgan. Shuningdek, ular qo‘shinning markaziy qismini boshqaruvchi “Ilg‘orboshiyi askar” yoki “sardori sipoh” kabi harbiy unvonlarni ham olgan.

⁷ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. – Б. – Б. 117, 267.

⁸ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-китоб. – Б. – Б. 352.

⁹ Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 2-китоб. – Б. 109.

Otaliqlar shahzodalar oliy mansabga erishganidan keyin ham katta obro‘-e’tibor va nufuzga ega bo‘lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yetakchi rol o‘ynaganlar. Biroq, mansabning keng vakolatlari ba’zan suiiste’molliklar va xon ustidan ta’sir o‘tkazishga urinishlarga sabab bo‘lgan. Rahimbiy yuz Otaliqning Ubaydullaxonni va Hakimbiy Otaliqning Abulfayzxonni o‘z ta’sir doirasida ushlab turishga intilishi bunga yorqin misoldir. Shahzodalarning (taxtni egallash) manfaatlari ortidan Otaliqlar siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro raqobatlasha boshlaganlar, bu esa xonlik ichidagi beqarorlikka hissa qo‘shgan.

Otaliqlar markaziy hukumatda yuqori mansabni egallab turib, so‘ngra viloyatlarga hokim etib tayinlanganlar. Eng muhimi, ular hududiy boshqaruvga o‘tkazilgandan keyin ham ko‘p hollarda o‘zlarining markaziy mansabi – “Otaliq” nomi bilan atalishda davom etganlar (Masalan, Maymanani boshqaruvchi Yormuhammad Otaliq). Bu holat, Otaliq lavozimining markaziy boshqaruvdagi yuqori nufuzi viloyat hokimi maqomidan ham ustunroq bo‘lganini va amaldorning shaxsiy obro‘si uning o‘tmishdagi mansabi orqali ta’kidlanganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Муҳаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. – Б. 207 – 297.
2. Sangirov J. O‘zbek davlatchiligi tarixi: ashtarxoniylar davri boshqaruv tizimi. PhD dissertatsiyasi. – T., 2024. – B. 73.
3. Семёнов. Бухарский трактато чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре. – С. 144 – 145.
4. Abdurahmon Tole. Tarixi Abulfayzxon. – B. 8b.
5. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. 1-2-китоб.